



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLIH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Boboqulova Sarvinoz Najmitdin qizi

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining O'zbekiston-Finlandiya
pedagogika instituti magistranti*

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI MA'NAVY – AXLOQIY TARBIYALASHNI SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM VOSITASIDA TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ma'naviy – axloqiy tarbiyalashni shaxsga yo'naltirilgan ta'lim vositasida takomillashtirish xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: odob - axloq, ma'naviyat, odob va tavoze', xulq – atvor.

O'sib kelayotgan yosh navqiron avlodning har tomonlama barkamol shaxs bo'lib, jamiyatga kirib kelishini ta'minlash jamiyat oldidagi eng ulug' maqsadlardandir. "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan", deya ta'kidlaydi muhtaram yurtboshimiz [1]

Yosh avlodga ta'lim tarbiya berish jarayonida avvalo, ustoz – muallimning o'zi ham ma'nan va axloqan tarbiyalangan bo'lmog'i joiz. Kelajak avlod ta'lim olish jarayonida ma'naviy – axloqiy tarbiyani ham o'zida tarkib toptirmog'i, odob – axloqli, chiroyli xulqli bo'lmog'i kerak. Bu o'rinda o'qituvchi Alisher Navoiy «Mahbub-ul-qulub» asarida bayon qilingan fikrlarini yoddan chiqarmasligi zarur:



«Odobdan kichiklarga shunchalik foyda yetadigan bo'lsa, kattalarga nechog'lik ekanini tasavvur qiling. Odob va tavoze' mehr-muhabbatning zebi-ziynatidir, odobsizlik do'stlikka putur yetkazadi. Odob va tavoze' do'stlik oynasiga jilo beradi va ikki oraga yorug'lik bag'ishlaydi. Tavoze' va odob egalariga hamma ta'zim qiladi va hurmat bildiradi. Odob urug'ini ekkan odamning hosili javohir bo'ladi. Odobli va go'zal xulqli odamlar ko'payaversa, xalqning do'stligi, ularning bir-biriga bo'lgan mehr-muhabbati borgan sari ravnaq topadi. Agar kishi odob va tavoze' kabi yaxshi xulqqa ega bo'lsa, o'zi ham xalqning izzat-hurmatiga sazovor bo'ladi» [21, 48-b.].

O'qituvchi «Ma'naviyat» so'zining «ma'ni» bilan o'zakdosh ekanligini tushuntirib, uni inson ichki olamiga, ko'zga ko'rinmas tomon – ruhi, qalbi, ko'ngliga bog'laydi. U inson siyratini tashkil etuvchi keng ko'lamlı tushuncha bo'lib, inson odob-axloqi, fel-atvori, yaxshi-yomonligi, intellekt darajasi, tafakkur tarzi kabi ichki omillarni qamraydi [2]

Ma'naviyat so'zi keng qamrovli tushuncha bo'lib, juda ko'p jamiyatshunos, adabiyotshunos, axloqshunos, san'atshunos va boshqa soha olimlarining diqqat-e'tiborini o'ziga tortib kelmoqda. Shu bois mazkur tushunchaga berilgan ta'riflar ham rang-barangdir. Quyida ulardan ayrim namunalar keltirib o'tamiz:

- ma'naviyat insonning botiniy va zohiriy olami;
- ma'naviyat millat nishoni;
- ma'naviyat inson qalbidagi nur;
- ma'naviyat odamning ruhiy va aqliy olamining majmui;
- ma'naviyat [jamiyatning](#), millatning yoki ayrim kishning ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi tushuncha;
- inson ruhiy olamidagi muayyan ijobiy ijtimoiy ahamiyat kasb eta oladigan fazilatlar ma'naviyat deb ataladi [3]

O'qituvchi ma'naviyat tushunchasini izohlayotganda ajdodlarimiz qoldirgan merosni bolalarga o'rgatish orqali ularda o'zlikni anglash hissini uyg'otishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga erishmoq uchun ularga milliy-ma'naviy muhit yaratish zarur. Bu fazilatlar avvalo o'qituvchining o'zida shakllangan bo'lishi zarur. Shundagina o'qituvchi bunday fazilatlarni o'quvchilarda tarbiyalashga kompetentli bo'ladi. Buning uchun u ma'naviy – axloqiy tarbiya vazifalarini aniq tasavvur qilishi lozim.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya vazifalari quyidagilardan iborat:

- 1.O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy ongini shakllantirish.
- 2.Ularda ma'naviy-axloqiy his-tuyg'ularni tarbiyalash va rivojlantirish.
- 3.O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy xulq-atvor ko'nikma va odatlarini tarkib toptirish.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya mohiyatiga ko'ra inson ongining jamiyat bilan aloqadorligi, jamiyat oldida burchli ekanligi, o'z xulq-atvorini jamiyat taraqqiyoti darajasiga bog'liqligini tushunishi, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy me'yor, ideal hamda talablarni bajarishda mas'uliyatni his etishi, ma'naviy-axloqiy bilimlarning e'tiqodga aylanishi va bu e'tiqodlarning tizimliliigi, mustahkam ma'naviy-axloqiy his-tuyg'u va xislatlarni shakllantirish, o'quvchilar tomonidan ma'naviy-axloqiy xulq-atvor jamiyat a'zolariga bo'lgan hurmat-e'tiborni namoyon



etuvchi mezonlardan ekanligining anglab yetilishi, ma'naviy-axloqiy odatlarning shakllanishi va boshqalardan iborat.

Bo'lajak o'qituvchi anglashi va uni chuqur o'zlashtirishi zarur bo'lgan masalalardan biri ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmunida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tiklash masalasining kun tartibiga qo'yish zaruriyatining yuzaga kelganligi munosabati bilan ta'lim-tarbiya mazmunida tub o'zgarishlar yuz berganligidir.

Xulosa qilib aytganda, eng muhim qadriyat inson omili hisoblanadi. Hayot insonga bir marta beriladi, Shuning uchun ham milliy va umuminsoniy qadriyatlarda uni mazmunli, o'zgarlar va o'zining hayoti ma'nosini anglagan holda o'tkazish kerakligi haqida ko'plab rivoyat, hikmat va pand-nasihatlar mavjud. Bundan tashqari ta'lim muassasasida o'quvchilarga qadriyat sifatida munosabatda bo'lish ham dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Zero, ta'lim tamoyillarida eng muhim, asosiy tamoyillardan biri ta'limni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish bo'lib, uning asosiy mohiyati o'quvchi shaxsiga insoniy munosabatda bo'lishni, ta'lim jarayonini erkinlashtirishni talab etadi. Ma'naviy-axloqiy tarbiyada yana bir eng qimmatli qadriyat erkinlikdir. Ta'limni demokratlashtirish bilan birga shaxs erki va huquqini hurmat qilish rivojlanadi. Bu esa o'z navbatida o'quvchi shaxsida mas'uliyatni his etish, ongli intizomga rioya etish ko'nikmalarini tarbiyalaydi. Shuningdek, vatanparvarlik, insonparvarlik, yuksak axloq, mehnatsevarlik, xalqlar o'rtasida do'stlik va hamkorlik, mas'uliyatni his etish, burch, or-nomus, vijdonlilik, tartiblilik, adolatlilik va boshqa xislatlar tarbiyasi katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" B 14 "O'zbekiston" Toshkent 2016.
2. Mavlonova R.A., Vohidova N.H., Rahmonqulova N.H. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Fan va texnologiyalar. 2010 -yil
3. Ochilov M., Ochilova N. Oliy maktab pedagogikasi. Darslik. -B 128-139 "ALOQACHI" nashriyoti. -Toshkent, 2008
4. Shodmonova Sh., Xoshimova M., Fayzullayeva N. Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti. Fan va texnologiyalar – 2011
5. Fayziyev M.A. Axborot texnologiyalarini o'rganish jarayonida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish // Fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi. ISSN: 2181-1776. Vol. 1 No. 02 (2021). 113-123 b. <https://bilig.academiascience.org/index.php/isepsmj/article/view/42>
6. Fayziyev M.A. Ta'lim sohasida media vositalaridan foydalanishning psixologik-pedagogik jihatlari // "Fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi" ilmiy-metodik jurnali (ISSN: 2181-1776) Vol. 2 No. 5 (2021). Published July 9, 2021 50-62 b. <https://bilig.academiascience.org/index.php/isepsmj/article/view/233>
7. Fayziyev M.A. Kvalimetrik yondashuv asosida iqtisodiy fanlarni o'qitish // "Fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi" ilmiy-metodik jurnali (ISSN: 2181-1776) Vol. 3 No. 5 (2022). May, 2022. 300-309 b. <https://bilig.academiascience.org/index.php/isepsmj/article/view/540/482>